



**O'ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARINING NIKOH TO'YLARIDA
AYTILADIGAN OLQISH VA ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARI**

Yabbarbergenova Aythbiyke Abdullayevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'irot tumani 47-sonli maktab qoraqalpoq tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi*

Yabbarbergenova Shadigul Abdullayevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 1-sonli kasb-hunar maktabi o'zbek tili
fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining nikoh to'ylarida aytiladigan olqish, istak mazmunidagi birliklari ularning inson hayotidagi beqiyos o'rni, milliy qadriyatlarimiz hisoblangan urf-odatlarimizni bildiruvchi, elimiz orasida keng targ'ib bo'lgan birliliklarning uslubiy qo'llanilishi, leksik va morfologik hususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Marosim, to'y, nikoh, urf-odatlar, og'zaki nutq, ijobiy istak, oila, ikki yosh, kelin salom, bet ashar, xalq qo'shiqlari.*

Bizning xalqimizda farzand tug'ilganidan boshlab unga oila, vatan oldidagi burchi ezgu niyatlar bilan singdirilib boriladi, bu oilaviy marosimlarimizda yaqqol ko'zga tashlanadi. Eng qadimdan o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining hayotida to'y o'tkazish katta ahamiyatga ega bo'lgan marosimlardan hisoblanadi. Qoraqalpoq tilida:"Jiyǵan tergeniń toyǵa buyrsim", "Toy dese quw bas jumalaydi", "Toy xaliqtıń ǵaziynesı" deb bekorga aytilmagan, shunki to'y bu inson uchun qadrli bo'lgan, uning hayot yo'lidagi xursandchilik kunlarini o'zida jamlagan yirik marosim demakdir. To'y atamasi "to'ymoq", "el-yurtga ziyopat bermoq" ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi.

To'y marosimlarining turlari ko'p, ulardan beshik to'yi, yosh to'yi, xatna to'yi, uylanish to'yi. Inson uchun bir umr qalbimizda muhrlanib qoladigan bu nikoh to'yimizdir. Nikoh to'yi-bu ikki yoshning oila qurishi, ahdu-paymoni, ularning umrbod bir-birlariga mehir qo'yib, bir-birlarini ardoqlashi, barcha xalqlarda ijtimoiy hodisa sifatida diniy nikoh va qonun bilan mustahkamlanib, tantanali ravishda nishonlanadi. "Nikoh" arabcha so'z bo'lib, "er-xotinlikni shariat yoli bilan qonuniy rasmiylashtirish" degan ma'noni bildiradi[1].

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari hayotida ham nikoh to'yini o'tkazish udumlari va shu to'ylarda bildiriladigan ijobiy istaklar mavjudki, bu xil birliklar respublikamiz ning turli hududlarida ma'lum farqlar bilan aytilsa ham, asosiy maqsad yangi oila quruvchi ikki yosh uchun hayot saboqlari bo'yicha ijobiy istak, olqish bildirish, nasihat qilishdan iborat bo'ladi. Bu xildagi ijobiy istak va olqish birliklari keyingi davrlarda hayot



tarzining o‘zgarib borishi natijasida yangicha tus olib borayotganligi tufayli to‘ylarda olqishlar aytish kengayib bormoqda.

Nikoh to‘yi munosabati bilan aytildigan ijobiy istak, olqish birliklari to‘y jarayoni bosqichlariga qarab ma’lum farqlarga ham ega bo‘ladi. Avvalo ikki yoshning oila qurishiga, ikki tomonning (qiz tomoni va kuyov tomoni) roziligini bildirish uchun fotiha o‘qish bilan istak bildiriladi, nikoh to‘yi kunida kuyov kelinning uyiga borishi oldidan va kelin uyidan qaytgandan so‘ng ijobiy istak bildiriladi. Kelin uyidan qaytib kelgan kuyovning qo‘liga yaxshi oilaning yosh farzandlaridan birini tutqazib, serfarzand bo‘lishi va ahil-totuv oila qurishi, uvali-juvali bo‘lishini istab, so‘ngra ikki yoshning porloq kelajagi, baxtli hayot kechirishi haqida nikoh to‘yida ijobiy istak bildiriladi. Avvalo, olqish tabarruk oqsoqollar, so‘ngra to‘y ishtirokchilari va eng so‘ngida ikki quda tomonidan bildiriladi.

O‘zbek xalqida to‘yning ertasi kuni ertalab kelinni kuyov qarindoshlari bilan tanishtirish maqsadida “kelin salom”, qoraqalpoq xalqida esa shu kuni “bet ashар” o‘tkaziladi va unda ham ikki yoshga, ularning ota-onalariga yaxshi tilaklar bildiriladi. Kelin salom vaqtida ta’zim qilib turgan kelinga nisbatan “ko‘p yashang” iborasi aytildiği, unda ham uzoq umr, tilash haqidagi olqish mazmuni ifodalangan.

Kelin salomlar asosan bitta chechan qo‘sinqchi, ba’zan ikkita ayol tomonadan ijro qilingan. Kelin salom uch misradan iborat.

Ko‘ylaklari yamoqli,
Yopgan noni sanoqli,
Qaynonasiga salom [2].

Qoraqalpoq xalqida ham bet ashardi shoir yoki so‘zga chechan qo‘sinqchi tomonidan kelinga el-yurtini tanishtirish va unga nasihat qilishdan, yosh oilaning kelajagi uchun yaxshi niyatlar bildirgan.

Kóshkende kóshti baslaǵan,
Jawligin qiya taslaǵan,
Anaw turǵan qayin eneń,
Óganda beriń bir salem [3].

Bu urf-odatlarning barchasi nutqimizda doimiy ravishda qo‘llanuvchi birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Masalan: Shu joylarda o‘sib-unib, tomir yoyinglar. Iloyo, qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin, o‘zidan ko‘paysin. Qolgan yoshlargayam yaxshi joylardan ato qilsin.Uvali-juvali bo‘linglar, tup qo‘yib palak yozinglar, qo‘sha qaringlar! (So‘zlashuvdan) Hayot yo‘ling doimo nurli va charog‘on bo‘lsin, nomingga dog‘ tushmasin, serfarzand, serdavlat bo‘lgin, topganing o‘zingga buyursin, bolam! Olti urug‘ning oshini bersin, Luqmoni Hakimning yoshini bersin, qushday qanot quyib bersin, tog‘day uyib bersin. Iloyo, borgan joyida tinib-tinchisin, o‘zidan ko‘paysin, qo‘sha-qo‘sha o‘g‘il-qizlar bersin, boshi to‘ydan chiqmasin (So‘zlashuvdan). Qoraqalpoq tilida: Eki jas baxith bolip, ózlerinen ónip-ósip, úbirli-shúbirli bolsın (So‘zlashuvdan).

Bu o'rinda shuni aytish lozimki, olqish birliklari o'zbek xalq qo'shiqlarida ham keng o'rin olgan.

MISOL:

Umri uzun bo'lsin,
Egani qatiq bo'lsin,
Qozoni to'la osh bo'lsin,
Tavaragiga bosh bo'lsin,
Qozoni to'la go'ja bo'lsin,
O'shog'i to'la ko'l bo'lsin,
Tavaragi ul bo'lsin [4].

Biz bu qatorlardan ikki yoshning oilasi mustahkam, umri uzun, rizqi butun, farzand lari ko'p bo'lishini ijobiy istaklarida ko'rishimiz mumkin. Olqish mazmunini ifoda lovchi birliklarda qo'llangan buyruq-istik maylidagi fe'l gapda istak, tilak mazmu nini reallashtirish uchun xizmat qiladi. Qoraqalpoq xalq og'zaki namunalarida ham olqish birliklarining ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar uchraydi.

MISOL:

Qumanıńda shay qaynasın,
Qazanińda may qaynasın,
Tórińde bóbek oynasın,
Qutli bolsın toylarıńız [5].

Biz bunday parchalardan oila qurgan ikki yoshning turmush faravonligi, uyida far zndlari oynab-kulib yurishini xalqimizning ezgu-niyatlarida ko'ramiz. O'zbek va qoraqalpoq oilasi azaldan serfarzand bo'lishni orzu qilgani tufayli, yangi oilaga ser farzand, serdavlat bo'lish istagi bilan bog'liq tilaklar bildiriladi.

Qoraqalpoq tilida buyruq mayli shakllari har xil uslubiy maqsadlarda foydalani ladi va -sin,-sin shakli rasmiy uslubda qo'llanilishiga qaramay ba'zida istak mayli shakllari -ǵay-gey bilan sinonim bo'lib keladi [6].

MISOL:

Qumanıńda shay qaynaǵay,
Qazanińda may qaynaǵay,
Tórińde bóbek oynaǵay,
Qutli bolsın toylarıńız.

Qoraqalpoq tilida istak maylining -g'ay-gey shaklli turi olqish, ma'nosini ifodalab, kelasi zamonda bajariladigan ish-harakatni ijobiy istak maznunida beradi[7].

Xulosa qilib aytganimizda, to'ylar bu inson hayot yo'lidagi muhim o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan turli shodiyono kunlarimizni o'zida mujassam etgan xalqimiz xazinasidir, shunki bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan urf-odatlarimizni kelajak avlodlarimizga yetkazishda, ularni ona vatanga muhabbat va sadoqat ruhin da tarbiyalashimizda o'rni beqiyosdir.



CANADA



CANADA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, I.Eshonqulov, A.Tilalov. O‘zbek folklori. Toshkent-2020. 63-bet.
- 2.O.Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent. Mumtoz so‘z. 2010. 146-bet.
- 3.Q.Ayimbetov. Xalıq danalığı. Nókis. Qaraqalpaqstan. 1988.15-bet.
- 4.M. Jo‘rayev. Oy oldida bir yulduz. Toshkent. 2000. 142-bet.
- 5.Q.Maqsetov. Qaraqalpaq xalqınıń kórkem awizeki doretpeleri. Nókis. Bilim. 1996. 96-bet.
- 6.A.Bekbergenov. Qaraqalpaq tiliniń stilistikası. Nókis. Qaraqalpaqstan. 1990. 65-bet.
- 7.Hazirgi qaraqalpaq tili Morfologiya. Nókis. 1981. 168-bet.